


**Viloyat hokimi Ulug'bek Qosimov
Sho'rchi tumani "Alisher Navoiy"
mahallasida joylashgan 9-sonli
umumta'lim maktabida bo'lib, ta'lim
jarayonlarining borishi bilan tanishdi
hamda o'qituvchi va o'quvchilar bilan
yaratilgan sharoitlar to'g'risida
suhbatlashdi.**



Maktab binosi 420 o'rinli bo'lib, hozirda 890 nafar o'quvchilar taxsil olishadi va ularga 65 nafar pedagoglar ta'lim berib kelmoqda. Maktab jamoasi "Tashabbusli byudjet" loyihasi doirasida 1,2 mlrd so'mga moddiy texnika bazasini mustahkamlash taklifi bilan g'olib bo'lib, mavjud xonalar zamonaviy elektron doska va boshqa jihozlar bilan ta'minlangan.

Viloyat rahbari maktab faoliyati namunali yo'lga qo'yilganligini e'tirof etib, ahillik bilan "bir yoqadan bosh chiqarib" faoliyat yuritayotgan maktab jamoasiga minnatdorchilik bildirdi. O'quvchilar uchun kitoblar jamlanmalarini topshirdi.

[Surxondaryo viloyati hokimligi Matbuot xizmati](#)